

BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA UNGA OILANING TA'SIRI

Xasanova Sevinchoy Muxtor qizi
Xaydarova Ruxshona Jaxongirovna

*Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya
yo'nalishi 2-bosqich talabalari (Tel) +998930801940, +998940122903*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bolalar psixologiyasiga ta'sir qiluvchi omillar va holatlar, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ota-onalarning bolalar bilan munosabatida yo'l qo'yadigan kamchiliklar, bolalarning ma'lum yosh davrlaridagi inqirozlar, butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'tkazilgan bir necha yillik izlanishlar va so'rov natijasi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Go'daklik, bolalik, inqiroz, shaxs, bola jamiyati, bola psixologiyasi, yetuklik, maktab yoshi, tanqid, psixologik qo'shimmalar, modellashtirish, o'z joniga qasd qilish, o'smirlik, yosh avlod, ota-onaning munosabati.*

Bolalar psixologiyasi XIX asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan boshladi. Bolalar psixologiyasi-psixologiya fanining alohida tarmog'i bo'lib, u turli yosh davrlari bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, shuningdek, bir yosh bosqichidan boshqasiga o'tish qonuniyatlarini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e'tibori tug'ilgandan to yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongning qanday rivojlanishiga qaratilgan. Bolalar psixologiyasi, ayniqsa, bolaning tengdoshlari va kattalar bilan bo'lgan muloqoti va uning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. D.B.Elkning yozganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, uning qonuniyatlarini bolalar psixologiyasi tadqiq etadi.

Yosh davrlariga ko'ra bolalikni 4 davrga bo'lamiz:

1. Go'daklik – bola tug'ilganidan boshlab 1 yoshgacha bo'lgan davr;
2. Ilk bolalik – bolaning 1 yoshidan to 3 yoshgacha bo'lgan davr;
3. Maktabgacha bo'lgan davri – 3 yoshidan 6-7 yoshgacha;
4. Kichik maktab yoshi – 6-7 yoshdan to 10-11 yoshgacha bo'lgan davr.

Bolalik – tezlik bilan rivojlanayotgan psixik taraqqiyot davri hisoblanadi.

Bolaning rivojlanishida ota-ona muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatini davrlashtirish mobaynida bolaga bo'lgan munosabatning turlicha bo'lishini kuzatamiz. Masalan, insoniyat rivojlanishining dastlabki davrlarida tug'ilgan farzandga befarqlik kuzatilgan, uning taqdiriga qiziqiqish bo'lmagan. O'rta davrlarda bu munosabat o'zgarib tug'ilgan farzandni o'zgalardan qizg'anish jarayoni kuzatiladi. Hozirgi kunga kelib, tug'ilgan farzandning qanday rivojlanayotganiga, uning kelajakdagi o'rniga alohida e'tibor berila boshlandi.

Ota-onalar va bolalar munosabatiga doir quyidagi kamchiliklar natijasida bolalar psixologiyasiga katta zarar yetadi. Masalan, ota-ona va farzandning fikrlashi va dunyo qarashi o'rtasidagi farq hisobga olinmasa, farzandning hayoti davomidagi tanlashi mumkin bo'lgan

mustaqil qarorlari ota-onalari tomonidan qat'iy tanqid ostiga olinsa, ba'zida farzandlarni mehnat qilishga o'rgatmasdan ularni onson hayot kechirishiga yo'l qo'yilsa, farzandlar ota-onalarining oldida o'z burchlarini ado etmasa va ota-onalarining yetarli bilimga ega bo'lmasligi.

Ba'zi ota-onalar bolalarda ma'lum bir davrlarda bo'ladigan krizislarni bilmasligi natijasida bolaning ruhiyatiga yot bo'lgan psixologik qo'shilmalar vujudga keladi. Bu yangicha psixologik qo'shilmalar bolalarning ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlarida yaqqol aks etadi. Buni o'z vaqtida anglab yetmagan ota-onalar esa nafaqat shikoyat qila boshlashadi, balki farzandining tarbiyasida o'zlari istaganidek yo'l tutishadi. Natijada ota-ona va farzand bir-birlarini tushuna olmay, bir-birilaridan ma'lum darajada uzoqlashadilar.

Bola rivojlanish mobaynida ma'lum bir yoshlarda inqiroz davrlarini boshidan kechiradi. Masalan, bola tug'ilganidan ma'lum vaqt o'tgach, harakatlanish darajalari ortishi natijasida atrofdagi narsalarni bilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, buning natijasida ota-onalar bolaga cheklolvar qo'yishga majbur bo'ladilar. Bu holat davom etishi natijasida bola endi o'z xohish-istaklarini amalga oshirishga harakat qiladigan faol bolaga aylanadi. Agar bola psixologiyasiga ota-onalari tomonidan ko'rsatilayotgan inqiroz me'yoridan oshib ketsa, bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida bola psixologiyasida turli-xil buzilishlar kuzatiladi. Bu vaziyatni tushungan ota-onalar bu «mumkin emas» kabi so'zlarini kamroq ishlatib, bolaning faolligini kerakli tomonga yo'naltira olishadi.

Bola psixologiyasi shunday nozik masalaki, bunda xatoga yo'l qo'yish mumkin emas. Bola psixologiyasi atrofdagi insonlarga taqlid qilish asosida shakllanadi. Bolaga o'rnak kerak. Bu ishni ota-ona, yaqin do'stlar, umuman olganda bolaning hayotida muhim bo'lgan insonlar bajaradi. Shu sababli har doim ota-onalar farzandlarini to'g'ri tushunib, go'zal namuna bo'lishlari kerak. Shu bilan bir qatorda farzandlari uchun munosib do'st tanlashlari kerak. Shundagina bola psixologiyasi eng yuksak darajada to'g'ri rivojlanadi.

Bolalarning psixologiyasiga ta'sir qiluvchi omillar va holatlar oila bu holatlarga qanday ta'sir qila oladi.

Bolalar psixologiyasiga ta'sir etuvchi omillar salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin. Bunda salbiy omillar katta ahamiyatga egadir. Bolalar psixologiyasiga ta'sir qiluvchi salbiy omil sifatida o'z joniga qasd qilishni ko'rib chiqamiz.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'tkazilgan bir necha yillik ilmiy izlanish va so'rovlar natijasida, o'z joniga qasd qilish holatlarini keltirib chiqaruvchi quyidagi asosiy omillar mavjudligi haqida to'xtamga kelingan.

1. Tushkunlik holati va asabiy buzilishlar;
2. Alkogolizm va narkotik moddalarni iste'mol qilish, ular ta'siriga berilish;
3. O'z joniga qasd qilish haqida o'ylash, bunga tayyorgarlik ko'rish, bunga taalluqli bo'lgan zararli diniy g'oyalar;
4. Tanholik, qo'llab-quvvatlashni yo'qotish yoki himoyasiz qolish;
5. Qisilishlar, og'ir muammolarga yo'liqish va ularni hal qilishdagi irodasizlik;
6. Qariyalik davri.
7. Modellashtirish, oilada o'z joniga qasd qilish, irsiyat, bu borada kimgadir taqlid qilish;

8. Iqtisodiy muammolar yoki ishdagi ziddiyatlar, ular bilan bog‘liq boshqa holatlar;
9. Turmushdagi muammolar, oilaviy patologiya;
10. Asab buzilishi faktorlari, javobsiz muhabbat, zo‘ravonlik, jahl, qo‘rslik;
11. Jismoniy kasallik.

Bu holat asosan o‘smirlik davrlarida yuz beradi va oldi olinib, bolaga vaqtida ota-ona tomonidan e‘tibor qaratilmasa, oxiri o‘z joniga qasd qilish bilan tugaydi.

Shuning uchun bu fanni yanada rivojlanishi biz yosh avlod uchun juda ham foydalidir va har bir ota-onalarda bu fan to‘g‘risida tushuncha bo‘lishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.S.Safoev. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika. Toshkent-2021. «INNOVATSIYA-ZIYO» Toshkent-2021.
2. S.M.To‘ychiyeva. Oila psixologiyasi. Toshkent-2015.
3. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi. «SHARQ» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2007.
4. F.I.Haydarov. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent - 2006..